

## “BAHOR” RAQS ANSAMBILINING TASHKIL TOPISHI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI REPERTUARLARI

Komiljonova Dilbarxon Shukurjon qizi  
O’zbekiston Davlat xoreografiya Akademiyasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10117929>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Bahor” raqs ansambilining tashkil topishi va uning bugungi kundagi repertuarlari haqida so’z boradi. Muallif ilmiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida “Bahor” raqs ansambilining tashkil topishi va uning bugungi kundagi repertuarlari bo'yicha o'ziga xos jihatlarini o'rgangan va tahlil qilgan.

**Kalit so'zlar:** “Bahor” raqs ansambili, Mukarrama Turg'unboyeva, raqs, san'at, madaniyat, repertuar.

### **Kirish (Introduction):**

Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi “Bahor” xalq raqs ansamblı — “O’zbekraqs” birlashmasidagi jahonga mashhur ansambl. 1957-yil tashkil etilgan. Ansamblning asoschisi va birinchi badiiy rahbari Mukarrama Turg'unboyeva (1979-yilgacha), shuningdek B.Aliyev, Q.Dadayev ham tashkilotchilardan. Keyingi badiiy rahbarlari: Qunduz Mirkarimova (1979 – 88), Ravshanoy Sharipova (1988 – 90), Ma'mura Ergasheva (1990-yildan). Musiqa rahbari Baxtiyor Aliyev (1965-yildan). 1964-yildan O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan ansambl maqomini oldi.

### **Asosiy qism (Main part):**

1979-yildan M. Turg'unboyeva nomida. “Bahor” ansamblı ijrochilarining asosini Toshkent xoreografiya bilim yurtini tamomlagan qizlar va Toshkent davlat konservatoriysi hamda O’zbekiston musiqa mакtabalarini tugatgan jo’rnavoz sozanda va xonandalar tashkil etadi. Z.Rahmatullayeva, D.Kerimova, N.Atamanova, T.Yunusova, A.To’laganova, D.Abdullayeva, N.Bashirova, E.Rasulxo’jayeva, K.Rahmatullayeva, N.Alimboyeva kabi raqqosalar, B.Aliyev, R.Hamdamov, E.Karimov, Q.Dadayev, R.Akbarbekov, O’.Rizayev, S.To’xtasinov, B.Xoliqov, K.Nosirov, K.Komilov singari sozandalar hamda O.Matyoqubov, B.Yo’ldoshev va boshqa xonandalar ansamblning dastlabki ijodkorlaridir. Ansambl repertuarida 200 dan ortiq yakka va ommaviy raqlar bor.

“Bahor” ansamblı o’zbek xalqining ko’p asrlar mobaynida to’plangan an'anaviy raqs madaniyati bilan jahon zamonaviy raqlarini yutuqlarini mujassamlantirgan. U tarixiy-ethnografik va zamonaviy xalq raqlarini asosida yangi mazmun kasb etuvchi sahna raqlarini ijod etdi. “Zang”, “Davra”, “Katta o’yin”, “Tanavor”, “Lazgi”, “Munojot kabi o’zbek mumtoz raqlarini shular jumlasidandir. Ansambl repertuarini yanada boyishi, jahonga tanilishida 60-yillarning oxiri va 70-yillarda ansamblga kelib qo’shilgan M.Ergasheva, G.Foziljonova, O’.Muhammedova, G.Jo’rayeva, F.Nizomitdinova, D.Ziyoxonova, R.Nizomova, R.Sharipova, V.Romanova, G.Hamroyeva, M.Haydarova, D.Yunusovalarning xizmatlari kattadir.

“Bahor” ansamblı 1996-yildan “O’zbekraqs” birlashmasida faoliyat ko’rsatadi. Ansamblida 60 kishi qatnashadi (2000). Toshkentda Mustaqillik maydonida o’z kontsert zaliga ega. Yetakchi artistlari: Rushana Sultonova, Gulnora Nizomova, Roza Adamboyeva, Yelena To’xtayeva, Olima Yokubova (raqqosalar), N.To’raxo’jayev, I.Hamdamov, K.Mirzayev, M.Foziljonov (sozandalar), Erkin Ro’zimatov (xonanda). Ansambl Liviya, Marokash, Jazoir, Tunis, Hindiston, Singapur, Malayziya, Pokiston, Afg'oniston, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlarda

gastrolda bo'lgan. Moskvada bo'lib o'tgan jahon yoshlari va talabalari 6-festivali, Leypsigda o'tkazilgan xalq raqlari 8-festivali (1971) laureati. Muhsin Qodirov, Mohina Ashirova.

2020-yilning 4-fevral kuni "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, Madaniyat vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida "Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambl" faoliyati tashkil etildi va uning asosiy vazifalari belgilandi.

Davlat raqs ansamblining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

O'zbekistonda raqs san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijodiy maktablarga xos an'analarni, mohir baletmeysterlar, balet artistlari merosini tiklash;

milliy raqs san'atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari "oltin fondi"ni yaratish;

xalqimiz, xususan, yosh avlodni milliy raqs san'ati haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosiga hurmat tuyg'usini, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;

raqs va xoreografiya san'ati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishda ishtirok etish, iste'dodli yosh baletmeysterlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratish;

milliy raqs va xoreografiya san'ati sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning natijalari asosida zamonaviy raqs kompozitsiyalarini sahnalashtirish;

milliy raqs san'atini mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda keng targ'ib qilish maqsadida Davlat raqs ansamblining milliy hamda jahon xalqlari raqlaridan iborat dasturlari asosidagi gastrol-konsert faoliyatini yo'lga qo'yish.

Shuningdek, Qarorga ko'ra davlat raqs ansambl konsert-tomosha faoliyatini tegishli litsenziya olmasdan, shuningdek, O'zbekistonda konsert-tomosha tadbirlarini bir martalik ruxsatnoma olmasdan amalga oshirish huquqiga ega.

### Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions):

Davlat raqs ansamblining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ijodkorlari ijtimoiy sharoitini yaxshilash maqsadida doimiy homiylik yordami ko'rsatishni nazarda tutuvchi "Do'stlar klubi" tashkil etildi.

"Bahor" ansambl o'z dasturini O'zbekistonning turli hududlariga xos yangi-yangi raqlar bilan ham boyitmoqda. Farg'ona, Namangan, Andijon, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Xorazm raqlari qatorida O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha xalqlar va qoraqalpoq xalqining raqlari ansambl dasturidan o'rinn olgan. "Bahor valsi", "Diddor", "Farg'ona ruboysi", "Gulnoz", "Namanganolmasi", "Andijon polkasi", "Piyola" singari Farg'onacha uslubda yaratilgan raqlar, shuningdek "Samarqand beshqarsagi", "Buxoro davrasi", "Xorazm lazgisi", "Qirq qiz", "Nilufar", "Oq oltin", "Dugonalar", "Sho'xi pari", "Nozanin", "Guldasta" kabi raqlar tomoshabinlarga manzur. Mehnat shavqi aks etgan "Pilla", "Paxta bayrami" raqs syuitalari va "Gulsara", "Namangancha", "Rohat", "Pomir raqsi" qizlarning eng sevgan raqlaridir.

"Yetti Sayyora", "Samarqand bahori", "Quda-andalar", "Cho'pon", "Qo'g'irchoq" kabi syujetli raqlar ansambl repertuarining xilma-xilligini oshirdi. Jamoa repertuaridan hind, Pokiston, birma, yapon, koreys, Arab, turk, afg'on, Kuba, Venger, Vietnam, Chex kabi jahon xalqlarining raqlari munosib o'rinn olgan. Ansamblning ko'pgina raqlari qo'shiq bilan ijro etiladi. Qo'shiqlarni xonandalar (Ahmadjon Shukurov, Xayrulla Lutfullayev va boshqalar) dan

tashqari qizlarning o'zlari ham sozandalar bilan aytadilar. "Intizor", "Uloq", "O'zbegim" kabi qizlar lapari mashhur.

Keyingi yillarda "Bahor" ansamblining "Besh go'zal", "To'yona", "O'zbekiston qizlari", "Navro'z", "Mukarramaxonim o'ynasa", "Bahor nashidasi", "Erkalab", "O'zbekiston istiqloli", "Majnuntol" kabi ommaviy va kompozitsiyali raqslari shuhrat qozondi. Ansambl raqslarini sahnaga qo'yganlar: Mukarrama Turg'unboyeva, Galiya Izmaylova, G'affor Vallomatzoda, Isoxor Oqilov, Qunduz Mirkarimova, Amina Dilboziy, Ma'mura Ergasheva va boshqalar.

### Xulosa (Conclusion):

2020-yilda "Bahor" ansamblini tiklash va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat OTM shaklida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etish to'g'risidagi muhim hujjatga imzo chekkan edilar. Va bugungi kunda hujjatlarda belgilangan ishlar amaliyotda ortig'i bilan amalga oshirildi. Madaniyat vazirligi tizmida yangi OTM faoliyatini boshladi. Darhaqiqat, "Bahor" raqs ansamblining sahnaga qaytishi unutilmas kun bo'ldi. Ayni vaqtda ansamblida 30 nafar yosh raqqosalar ijod qilmoqda.

Umuman xulosa qilib aytganimizda, madaniyat bu - o'zligimiz. O'zbek milliy raqs san'ati madaniyat va san'atimizning yo'g'on, mustahkam ildizlaridan biridir. San'atimizni raqs mакtablarisiz tasavvur qilish qiyin. Raqs - insonlar ruhiyatini davolovchi, qalb torlarini chertuvchi, musiqa hamohangligida mukammal obraz yaratuvchi bebaho san'atdir.

### References:

1. Sh.Qurbanova, X.Xursandov. Surxon raqs mакtabi. "Nur sehri oshyonu" MCHJ bosmaxonasi. Toshkent - 2010. – 73 b
2. J. Muydinov, A.G'ulomjonov. Musiqa san'ati orqali o'quvchilarning estetik dunyoqarashini shakllantirish. "Madaniyat va san'at tizimi sohalarining ustuvor yo'nalishlari, muammo va yechimlari" konferensiyalar to'plami. "Poligraf Super Servis" MCHJ. Farg'ona-2020. – 385 b.
3. B.Sayfullayev. "Nomoddiy madaniy meros va folklor ijrochilik san'ati" konferensiyalar to'plami. "Lesson press" nashryoti. Toshkent-2016. – 260 b.
4. M. Tojimetova. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. № 43 (565), 2022-yil 1-mart. – 6 b.
5. Karimov. Lazgi — nomoddiy madaniy merosimiz durdonasi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. 2020-yil 24-oktyabr. – 6 b.
6. N. E. Abraykulova. Raqs. - T: "Turon - Iqbol ", 2018. – 156 b.6